



## HUNARLI KISHI XOR BO'LMAS

Safoyeva Zamira

Navoiy viloyati Navbahor Tumanidagi

17-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6542064>

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada hunar inson uchun, uning har bir insonning hayot yo'li davomida muhimligi, turli hayot sinovlarida qanchalik as qotishligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Novvoy, shifokor, haydovchi, dehqon, chevar, risq, kasb-hunarlar, me'mor, qushuvchi, o'quvchi

Alloh insonning risqini ham boshqa jonzotlarniki kabi o'zi avvaldan belgilagan. Inson nima ish, yumush qilmasin o'sha yozilgan risq nasibasinigina topadi. Faqat risqini haloldan yoki xaromdan topishligini uning o'ziga topshirildi. Agarda kishi yoshligida bir kasbni chiroyli puxta o'rganib olsa, u kasb bilan obro - e'tabor, halol risq, yaxshi nom va albatta o'zidan solih farzandlar qoldiradi

Dunyoda kasb-hunarlar ko'p. Hayotda har bir kasbning o'ziga yarasha o'rni, ahamiyati bor. Novvoy xalq dasturxonini to'yimli va shifobaxsh nonlar bilan ta'minlasa, shifokor bemorlarni davolaydi. Haydovchi odamlarning uzog'ini yaqin qilsa, dehqon el dasturxoniga shirin-shakar qovun-tarvuzlar, don mahsulotlari va sabzavotlar yetkazib beradi. Chevar xushbichim kiyim-kechaklar tikadi, me'mor yurt ko'rkiga ko'rk qushuvchi mahobatli binolar barpo etadi. Shuni ham takidlash o'rinliki barcha kasblarni o'rganishlik maktab davridagi bolaning qiziqishidan, o'qituvchining mahorati orqali ham shakllanadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zamonaviy bosqichi o'quvchi shaxsi shakllanishida erkinlikni ta'minlashning yangi qirralari ochib berilayotganligi bilan tavsiflanadi. Bu oradagi milliy ta'lim modelimizning asosiy g'oyasi va mazmuni «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy



prinsiplarini o'z ichiga olgan 3-moddasida «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi» qayd etilganligi o'quvchi shaxsi, imkoniyat va ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratilganligining tasdig'idir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joizdir:

“Yoshlarni zamonaviy fan- texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishga sharoit tug'dirmay turib, biz respublikamiz xalq xo'jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarni tubdan o'zgartira olmaymiz. Buni ham doimo yodda tutish kerak. Chunki, ishsizlik, maosh kamligi mutaxassislar yetishmasligi va boshqa ko'p yetishmovchiliklar ana shundan deb o'ylayman” .

Bugungu kunda kasb-hunarga yo'naltirish tizimining asosiy vazifasi o'quvchilarning qiziqish-layoqatlari, qobiliyat va imkoniyatlarni aniqlab, ixtiyoriy majburiy ta'lim tizimini, ya'ni akademik litseyda ta'lim yo'nalishi, kasb-hunar kollejlarda kasb-hunar sohasini ongli va to'g'ri tanlashlarini ta'minlashdir. Chunki, bola har tomonlama sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Ular ongida kasb-hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, Har bir nazariyaning rivojlanganlik darajasi faoliyat asosiga qoyilgan tamoyillar tarkibi va sifati bilan aniqlanadi. Kasbga yo'naltirish tamoyillarini yaratishda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

-onglilik;

- muvofiqlik (shaxs qiziqishlari, qonuniyatlari bilan jamiyat uchun zarur kasblarga bo'lgan ehtiyojining mos kelishi);

-kasb tanlash faolligi;

-rivojlantirish (ushbu tamoyil tanlagan kasbi shaxsning rivojlanishini, maharotini oshirish uchun xizmat qilishi kerak, degan g'oyani o'zida aks ettiradi).

Yoshlarni kelajak hayotga, mehnatga, ma'lum kasb-hunarga tayyorlash ishida, ularga xalq xo'jaligining tuzilishi, hozirgi zamon ishlab chiqarishi, yangi texnika, ilg'or texnologiya, turli



materiallar va asbob-uskunalar, jihozlar, qurilmalar bilan tanishish va ishlash, ishlab chiqarish, unumli mehnat kasblari, kasb egalari hayoti va faoliyati kabilar bilan tanishtirishda mehnat ta'limi darslar va maktabdan tashqari tadbirlar ham muhim ahamiyatga egadir.

Ayniqsa, o'quvchilarda kasb-hunar tarbiyasini shakllantirishda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Chunki, maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Maktabdan tashqari ishlar bolalarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni ixtiyoriy ravishda, faol va mustaqil qatnashishlari sharoitida tashkil qilinadi. Chunki, bola har tomonlama sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Ular ongida kasb-hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish kerak. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "madaniy-eststik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassalarini tashkil etish" ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yaxshilash, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Avloddan -avlodga meros sifatida o'tib kelayotgan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda maktabdan tashqari tadbirlardan foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, avvalo o'zimiz kerakli bo'lgan kasb hunarlarni tanlab, ularni mukammal tarzda egallashlik bilan yurtimiz rivojiga hissa qo'shishlik bilan, oilamiz, rozg'orimiz butligiga zamin yaratishimiz kerak. Farzandlarimizni ham o'z ishlarini ustasi bo'lib yetishishlari uchun qo'limizdan kelgan barcha imkoniyatlardan foydalanalik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – Toshkent, O'zbekiston, 1995 – 23-bet.



2. Mavlonova R, To'rayeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika- Toshkent: O'qituvchi 2001-yil 510-b.
3. Pedagogika. Pedagogika oily o'quv yurtlarida darslik. A.K. Munavvarov tahriri ostida Toshkent: O'qituvchi 1996-yil 200-b.
4. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar Konsepsiyasi. – Ma'rifat g., 1993, 3mart